Sifatli ta’lim – yorqin kelajak


TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ILMIY XABARNOMA

ISSN: 3060-4761

ILMIY JURNAL

№ 2 (06) IYUN 2026



SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK

ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARNOMASI

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE
PEDAGOGICAL INSTITUTE

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

TERDPI ILMIY XABARNOMASI

2026/ № 2



O'zR OAK ning 2025-yil 24-sentabrdagi
375/5-sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan

Termiz – 2026

ISSN: 3060-4761

Muassis:
Termiz davlat pedagogika instituti

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
Jurnal bir yilda bosma va elektron (o'zbek, rus, ingliz tillarida) shaklda chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 6-iyundagi № 303723-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan manba, ko'chirma, mazmun va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgar. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 26,25
Ofset bosma. Ofset qog'ozi.
Adadi: 100 nusxa
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma: 174
Tahririyat manzili: Termiz tumani "Yangiobod" MFY, At-Termiziy ko'chasi 1-A uy.
"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi.
Bosmaxona manzili: Termiz shahri, A.Navoiy ko'chasi, 42 uy.

BOSH MUHARRIR:
Xasanov Azizbek, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Kuldasheva Shaxnoza, kimyo fanlari doktori (DSc), professor

TEXNIK MUHARRIR:
Qurbanov Abdimalik, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MAS'UL KOTIB:
To'rayev Ro'ziboy, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIR HAY'AT A'ZOLARI:
Bernd Müller-Jacquier,f.f.d, professor (Germaniya)
Ponomaryova Lyudmila, p.f.d, professor (Rossiya)
Gerasyov Aleksandr, p.f.d, professor (Rossiya)
Buligina Yelena, f..f.d, professor (Rossiya)
Eshmetov Izzat, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Abdikamalova Aziza, k.f.d, professor (O'zbekiston)
Salixanova Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Jumaeva Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Sagdullayeva Dilafruz, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Turamuratov Ulug'bek, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Norbo'tayev Xo'shboq, p.f.d,(DSc) professor (O'zbekiston)
To'rayev Rasul, f.m.f.n, professor (O'zbekiston)
Shamuratova Nagima, q.x.f.d. (DSc), professor (O'zbekiston)
Saidov Chorixon, f.m.f.d, professor (O'zbekiston)
Bozorov Lutfulla, k.f.d., (DSc) (O'zbekiston)
Mahmudov Yusup, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Xudoyqulov Xol, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Alimov Parda, f.f.d, professor (O'zbekiston)
Xoliqnazarov Begali, b.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Qodirov Baxtiyor, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Tojiyev Panji, t.f.d,(DSc), dotsent (O'zbekiston)
Qosimov Shavkat, PhD, professor (O'zbekiston)
Saidaxmatov Sharifbek, t.f.f.d., PhD,dotsent (O'zbekiston)
Xudoyberdiyev Shuxrat, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Umarov Aziz, PhD (O'zbekiston)
Abduraxmonov Eldor, k.f.d, ,(DSc), professor (O'zbekiston)
Shabbazova Dilfuza, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nuritdinova Xurshida, PhD (O'zbekiston)
Quvvatova Mohira, PhD (O'zbekiston)
Mardonova Lobar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nurmatov Norqobil, q.x.f.d, (DSc), professor (O'zbekiston)
Ismailov Botir, PhD, (O'zbekiston)
Sattorov Sardor, PhD (O'zbekiston)
Allamuradov Anvar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Kabilova Sayyora, PhD (O'zbekiston)
Ismailov Murodulla, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Eshmuradov Olmosbek, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Isayev Oybek, Phd (O'zbekiston)
Norliyev Rustam, f.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Berdiyeva Muhabbat, Phd, professor (O'zbekiston)
Shirnazarova Zamira, Phd,dotsent (O'zbekiston)
Narbasheva Mexri, p.f.n, professor (O'zbekiston)
Kuzimurotova Dinara, Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri (O'zbekiston)

ISSN: 3060-4761

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Хасанов Азизбек, доктор педагогических наук (DSc), профессор.

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА:
Кулдашева Шахноза, доктор химических наук (DSc), профессор

ТЕХНИЧЕСКИЙ РЕДАКТОР:
Курбанов Абдималик, доктор философии по техническим наукам (PhD)

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:
Тураев Рузибой, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:
Бернд Мюллер-Жакье, д.ф.н., профессор (Германия)
Пономарева Людмила, д.п.н., профессор (Россия)
Герасёв Александр, д.п.н., профессор (Россия)
Булыгина Елена, д.ф.н., профессор (Россия)
Эшметов Иззат, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Абдикамалова Азиза, д.к.н., профессор (Узбекистан)
Салиханова Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Джумаева Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Сагдуллаева Дилафруз, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Турамурадов Улугбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Норбутаев Хушбок, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Тураев Расул, к.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Шамуратова Нагима, д.с.н, профессор (Узбекистан)
Саидов Чорихон, д.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Бозоров Лутфулла, д.т.н. (Узбекистан)
Махмудов Юсуп, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Худойкулов Хол, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Алимов Парда, ф.ф.н, профессор (Узбекистан)
Халикназаров Бегали, к.б.н, доцент (Узбекистан)
Кодиров Бахтиёр, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Таджиев Панджи, д.т.н., доцент (Узбекистан)
Касимов Шавкат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Саидахматов Шарифбек, д.ф.и.н, доцент (Узбекистан)
Худойбердиев Шухрат, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Умаров Азиз, д.ф.п.н, (Узбекистан)
Абдурахманов Эльдор, д.х.н., профессор (Узбекистан)
Шаббазова Дилфуза, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Нуритдинова Хуршида, д.ф.п.н (Узбекистан)
Кувватова Махира, д.ф.п.н (Узбекистан)
Мардонова Лобар, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нурматов Норкабил, д.с.н., профессор (Узбекистан)
Исмаилов Ботир, д.ф.п.н (Узбекистан)
Сатторов Сардор, д.ф.п.н (Узбекистан)
Алламурадов Анвар, д.ф.п.н. доцент (Узбекистан)
Кабилова Сайёра, д.ф.ф.н, (Узбекистан)
Исмаилов Муродулла, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Эшмурадов Олмосбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Исаев Ойбек, д.ф.и.н (Узбекистан)
Норлиев Рустам, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бердиева Мухаббат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Ширназарова Замира, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нарбашева Мехри, к.п.н. профессор (Узбекистан)
Кузимуротова Динара, редактор редакционно-издательского отдела, (Узбекистан).

Основатель:
Термезский государственный педагогический институт

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

Журнал издается в печатном и электронном виде (на узбекском, русском, английском языках) в течение одного года.

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством № 303723 от 6 июня 2024 года.

Авторы несут ответственность за достоверность источников, выдержек, содержания и информации, используемых в текстах. При копировании из журнала необходимо указывать источник.

Разрешение получено: 12.06.2026.
Размер бумаги: 70x85.
Печатная форма: 26,25.
Офсетная печать.
Офсетная бумага.
Количество: 100 экз.
Цена указана по договорённой цене.
Заказ: 174
Адрес редакции: Термезский район, «Янгиабад» МФМ, улица Ат-Термизи, дом 1-А.
Отпечатано в типографии «ТерГУ».
Адрес типографии: город Термез,улица А.Навоий, дом 42.

ISSN: 3060-4761

Founder:
Termiz State Pedagogical Institute

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

The magazine is published in printed and electronic form (in Uzbek, Russian, English) in one year.

Registered by the Information and Mass Communications Agency under the Presidential Administration of the Republic of Uzbekistan with certificate No. 303723 dated June 6, 2024.

The authors are responsible for the accuracy of the sources, excerpts, content and information used in the texts. When copying from a journal, the source must be noted.

Permission to print: 12.03.2026
Paper size: 70x85
Printing plate: 26.25
Offset printing.
Offset paper.
Quantity: 100 copies
Price at the agreed price.
Order: 174
Editorial address: Termez district, «Yangiabad» MCK, At-Termiziy street, 1-A.
Printed at the "TerSU printing house". Address: Termez city, A.Navoiy street, 42.

THE EDITOR-IN-CHIEF:
Xasanov Azizbek, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Kuldasheva Shakhnoza, Doctor of Chemical Sciences (DSc), Professor

TECHNICAL EDITOR:
Qurbanov Abdimalik, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences

RESPONSIBLE SECRETARY:
Turaev Ruziboy, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:
Bernd Müller-Jacquier, Doctor of Philological Sciences, Professor (Germany)
Ponomaryova Lyudmila, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Gerasyov Aleksandr, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Buligina Yelena, Doctor of Philological Sciences, Professor (Russia)
Eshmetov Izzat, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Abdikamalova Aziza, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Salikhanova Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Jumaeva Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Sagdullayeva Dilafruz, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
To'ramuratov Ulug'bek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Norbo'tayev Xo'shboq, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
To'rayev Rasul, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Shamuratova Nagima, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
Saidov Chorikhon, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Bozorov Lutfulla, Doctor of Technical Sciences (DSc), (Uzbekistan)
Mahmudov Yusup, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Khudoyqulov Khol, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Parda Alimov, Candidate of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Xoliqnazarov Begali, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor, (Uzbekistan)
Qodirov Baxtiyor, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Tojiyev Panji, Doctor of Technical Sciences (DSc), Associate Professor (Uzbekistan)
Qosimov Shavkat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Saidakhmatov Sharifbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Khudoyberdiyev Shuxrat, PhD (Uzbekistan)
Umarov Aziz, PhD (Uzbekistan)
Abduraxmonov Eldor, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Shabbazova Dilfuza, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nuritdinova Khurshida, PhD (Uzbekistan)
Quvvatova Mohira, PhD (Uzbekistan)
Mardonova Lobar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nurmatov Norqobil, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Profess. (Uzbekistan)
Ismailov Botir, PhD (Uzbekistan)
Sattorov Sardor, PhD (Uzbekistan)
Allamuradov Anvar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Kabilova Sayyora, PhD, (Uzbekistan)
Ismailov Murodulla, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshmuradov Olmosbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Isayev Oybek, PhD (Uzbekistan)
Norliyev Rustam, Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Berdiyeva Muhabbat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Shirnazarova Zamira, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Narbasheva Mexri, Candidate of Psychological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Kuzimurotova Dinara, Editor, Editorial-Publishing Department (Uzbekistan)

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

ORCID 0009-0007-4515
UDK: 94(575.1)-631.6-338.43

QULBOSHEV SIROJIDDIN JUMAYEVICH
Termiz davlat pedagogika instituti
Tarix kafedrasi mudiri
s.qulboshev2710@gmail.com

SHEROBOD CHO'LLARINI O'ZLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ JARAYONLAR TAHLILI

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada Sherobod cho'llarini o'zlashtirish bilan bog'liq tarixiy jarayonlar ilmiy asosda kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda Sovet hokimiyatining yangi yerlarni o'zlashtirish siyosati, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini barpo etish jarayonlari hamda cho'l hududlarini qishloq xo'jaligiga moslashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, aholini tog'li hududlardan yangi o'zlashtirilgan yerlarga ko'chirish siyosati, uning demografik va ijtimoiy oqibatlari ham tadqiq etilgan. Maqolada Sherobod, Qiziriq va Beshqo'ton cho'llarida amalga oshirilgan gidrotexnik inshootlar qurilishi, magistral kanallar faoliyati hamda paxtachilikka ixtisoslashgan sovxozlarning tashkil etilishi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, cho'l hududlarini o'zlashtirish natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolar, suv taqchilligi, yerlarning sho'rlanishi va tabiiy muhitdagi o'zgarishlar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida arxiv hujjatlari, statistik ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlardan keng foydalanilgan. Maqolada Surxon-Sherobod vohasining iqtisodiy taraqqiyoti, paxta yakkahokimligi siyosatining hudud hayotiga ta'iri ham ochib berilgan. Tadqiqot natijalari Sherobod cho'llarini o'zlashtirish jarayonining tarixiy ahamiyati hamda uning hudud rivojlanishidagi o'rnini yoritishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

KALIT SO'ZLAR: *Sherobod cho'li, yangi yerlarni o'zlashtirish, sug'orish tizimi, melioratsiya, Sovet agrar siyosati, ko'chirish siyosati, qishloq xo'jaligi, Surxondaryo, ekologik muammolar, voha taraqqiyoti.*

АНАЛИЗ ПРОЦЕССОВ, СВЯЗАННЫХ С ОСВОЕНИЕМ ШЕРАБАДСКИХ ПУСТЫНЬ

АННОТАЦИЯ: В данной статье комплексно и на научной основе проанализированы исторические процессы, связанные с освоением Шерабадских пустынь. В исследовании рассмотрены политика советской власти по освоению новых земель, создание ирригационных и мелиоративных систем, а также вопросы приспособления пустынных территорий к сельскохозяйственному использованию. Особое внимание уделено политике переселения населения из горных районов на новые освоенные земли, а также её демографическим и социальным последствиям. В статье подробно освещены строительство гидротехнических сооружений, деятельность магистральных каналов и создание специализированных хлопководческих совхозов в пустынях Шерабад, Кизирик и Бешкотон. Кроме того, исследуются экологические проблемы, возникшие в результате освоения пустынных территорий, включая нехватку водных ресурсов, засоление почв и изменения природной среды. Исследование основано на архивных документах, статистических материалах и научной литературе. Также раскрыто влияние политики хлопковой монокультуры на социально-экономическую жизнь Сурхан-Шерабадского оазиса. Результаты исследования представляют собой важный научный источник для изучения исторического значения освоения Шерабадских пустынь и их роли в развитии региона.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *«Шерабадская пустыня», «освоение новых земель», «ирригационная система», «мелиорация», «советская аграрная политика», «политика переселения», «сельское хозяйство», «Сурхандарья», «экологические проблемы», «развитие оазиса».*

ANALYSIS OF THE PROCESSES RELATED TO THE DEVELOPMENT OF THE SHEROBOD DESERTS

ABSTRACT. This article provides a comprehensive scholarly analysis of the historical processes related to the development of the Sherobod deserts. The study examines the Soviet policy of reclaiming new lands, the establishment of irrigation and land reclamation systems, and the adaptation of desert territories for agricultural purposes. Particular attention is paid to the policy of resettling populations from mountainous regions to newly developed areas and its demographic and social consequences. The article presents detailed information about the construction of hydraulic engineering facilities, the operation of major canals, and the establishment of cotton-specialized state farms in the Sherobod, Qiziriq, and Beshqoton deserts. Furthermore, the research analyzes ecological problems caused by desert development, including water shortages, soil salinization, and environmental changes. The study is based on archival documents, statistical data, and scientific literature. It also reveals the impact of cotton monoculture policy on the socio-economic life of the Surxon-Sherobod oasis. The findings of the research serve as an important scientific source for understanding the historical significance of the development of the Sherobod deserts and their role in regional progress.

KEYWORDS: *"Sherobod Desert," "Development of New Lands," "Irrigation System," "Land Reclamation," "Soviet Agrarian Policy," "Resettlement Policy," "Agriculture," "Surkhandarya," "Environmental Problems," "Oasis Development.".*

KIRISH. Sherobod cho'li Amudaryo va Ko'hitangtog' hamda Bobotog' oralig'idagi keng tekislik bo'lib, umumiy maydoni 3100 km^2 ni tashkil etadi. Uning shimoli-sharqiy qismi Qiziriqdara deb atalib, ayrim joylari chuqur jarliklardan iborat. Hududning 25 foizini Xavdag va Boshxotin tizmalarining tepaliklari egallaydi.

Sherobod cho'li tuproq tarkibi va iqlimi jihatidan qishloq xo'jaligi, ayniqsa, paxtachilik uchun qulay hudud sanaladi. Biroq suv resurslarining yetishmovchiligi dehqonchilikni murakkablashtiradi. Relyef xususiyatlariga ko'ra, bu yerda 50 ming gektar maydon tabiiy oqimli suvlar bilan sug'oriladi, lekin 130 ming gektarni sug'orish uchun suvni mexanik usulda ko'tarish talab etiladi.

Maqolaning maqsadi. Sherobod cho'llarini o'zlashtirish bilan bog'liq tarixiy jarayonlarni ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Unda Sovet davrida amalga oshirilgan yangi yerlarni o'zlashtirish siyosati, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarining barpo etilishi hamda qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, aholini majburiy ko'chirish siyosati va uning hudud demografiyasiga ta'siri ochib berilgan. Maqolada Sherobod cho'lida amalga oshirilgan irrigatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligi ham tahlil qilingan. Muallif cho'l hududlarini o'zlashtirish natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarni ham o'rgangan. Tadqiqot davomida arxiv hujjatlari, tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan. Maqolaning yana bir maqsadi Surxon-Sherobod vohasining taraqqiyotidagi o'zgarishlarni tarixiy asosda yoritishdir. Bundan tashqari, paxta yakkahokimligi siyosatining hudud ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri ko'rsatib berilgan. Tadqiqot orqali hududdagi migratsion jarayonlar va mehnat resurslari taqsimoti masalalari ham ochib berilgan. Umuman olganda, maqola Sherobod cho'llarini o'zlashtirishning tarixiy ahamiyati va oqibatlarini kompleks tahlil qilishni maqsad qilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. 1950-1980-yillarda Sherobod cho'llarini o'zlashtirish bo'yicha olib borilgan keng ko'lamli ishlarni uch bosqichga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Bosqich: 1960-yillarda – dastlabki o'zlashtirish ishlari. Bu bosqichda sug'orish tizimlarini rejalashtirish va loyihalashtirish boshlandi, dastlabki melioratsiya tadbirlari amalga oshirildi, cho'l hududlarida tuproq unumdorligini oshirish uchun sinov ishlari olib borilib, sug'orish uchun suv manbalarini izlash va quduqlar qazish ishlari yo'lga qo'yildi hamda yangi yerlarni ekin maydonlariga aylantirish yuzasidan ishlar olib borildi.

1950-yil 17-avgustda SSSR Ministrlar Soveti tomonidan "Sug'oriladigan yerlardan yanada samarali foydalanish maqsadida yangi sug'orish tizimini joriy etish hamda qishloq xo'jaligi ishlarini mexanizatsiyalash darajasini oshirish to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Mazkur hujjat sug'oriladigan yer maydonlarini kengaytirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida zamonaviy texnik vositalardan unumli foydalanish uchun huquqiy asos yaratdi. Natijada paxtachilik tarmog'ida traktorlar, yer tekislash agregatlari va boshqa mexanizmlarning qo'llanilishi kengaydi, bu esa mehnat samaradorligining ortishi hamda hosildorlikning oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ushbu qaror ijrosi doirasida 1950-yilda Surxon-Sherobod vohasida ham qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiya qilishga qaratilgan qator tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, sug'orishning yangi usullarini joriy etish, mavjud sug'oriladigan yerlarni kengaytirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda tuproq sho'rlanishining oldini olish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

1951–1952-yillarda Jarqo'rg'on, Termiz, Angor, Sherobod va Sho'rchi rayonlari aholisi Zang kanalini tozalash va rekonstruksiya qilish ishlarida faol ishtirok etdi. Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida kanalning suv o'tkazish imkoniyati yaxshilanib, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining suv bilan ta'minlanish darajasi sezilarli ravishda oshdi. [1]

Sovet davrida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kengaytirish va yangi yerlarni o'zlashtirish siyosati doirasida aholini bir hududdan ikkinchi hududga ko'chirish amaliyoti keng qo'llanildi. Ayniqsa, paxtachilikni rivojlantirish va ekin maydonlarini kengaytirish maqsadida tog'li hamda chekka hududlarda yashovchi aholini sug'oriladigan va qishloq xo'jaligi uchun qulay yerlarga joylashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Shu munosabat bilan Boysun va Sherobod tumanlaridan 800 nafar aholi Beshqo'ton massiviga ko'chirildi. Bundan tashqari, Boysun tumanidagi 16 ta hamda Sherobod tumanidagi 3 ta kolxoz mazkur hududga ko'chirilib joylashtirildi.

Ko'chirilgan aholining yashash sharoitlarini ta'minlash maqsadida keng ko'lamli qurilish ishlari amalga oshirildi. Surxondaryo viloyati 7-qurilish-montaj boshqarmasi vakillari, xususan, prorab V. Krasnov va qurilish ustasi D. Boboqulov rahbarligidagi jamoalar tomonidan "Yangiobod" sovxozi markazida 34 ta, 4-bo'limda 10 ta, 3-bo'limning Chuqurqishloq uchastkasida 20 ta, 5-bo'limda 25 ta hamda 6-bo'limning Chuqurjar uchastkasida 36 ta turar joy qurib foydalanishga topshirildi. Shu tariqa ko'chirilgan aholi uchun jami 125 ta kvartira bunyod etildi.

Mazkur qurilish ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda quruvchilar jamoasining hissasi katta bo'ldi. Ayniqsa, duradgorlik kompleks brigadasiga rahbarlik qilgan A. Alimovning mehnati va tashkiliy faoliyati alohida e'tirof etishga loyiqdir.[2]

Tahlil etadigan bo'lsak, Surxon-Sherobod vohasida 1950-1955-yillar oralig'ida paxta ekin maydonlari har yili o'rtacha 4,5 ming gektarga kengaygan, 1950-1955-yillarda har yili o'rtacha 10 ming tonna paxta hosildorligi oshgan. 1955-yilda paxta maydonlari 1950-yilda yilga nisbatan 22,5 ming gektarga, ya'ni 37 foizga ko'paydi. Natijada,

hosildorlik 50 ming tonnaga ortdi. 1954-1958-yillarda voha mehnatkashlari meliorativ va irrigatsion qurilishlarda katta natijalarga erishganlari qayd etilgan. Bu davrda yangi kanallar, drenaj tizimlari va nasos stansiyalari qurilib, sho'rlanishga qarshi chora-tadbirlar amalga oshirilgan. [3]

2. Bosqich: 1970-yillarda – katta hajmdagi irrigatsiya va melioratsiya ishlari. Mazkur davrda sug'orish tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, yirik irrigatsiya inshootlari, xususan, magistral kanallar va suv omborlari bunyod etildi hamda foydalanishga topshirildi. Ushbu tadbirlar natijasida ilgari qurg'oqchil bo'lgan keng hududlar qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerlarga aylantirildi. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va tuproq unumdorligini saqlab qolish maqsadida sho'rlanishga qarshi kurash ishlari olib borilib, zovur va drenaj tarmoqlari qurildi. Natijada qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, ayniqsa paxta yetishtirish ko'rsatkichlari sezilarli darajada ortdi.

1967-yilda Sherobod rayonida paxtachilik tarmog'i yanada kengaydi va 20 350 gektar maydonga paxta ekildi. Yil yakunlariga ko'ra davlatga 34 207 tonna paxta topshirildi hamda belgilangan reja 500 tonna ortig'i bilan bajarildi. Mintaqada sug'orish tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan muhim obyektlardan biri Sherobod mashina magistral kanali bo'ldi. Uning qurilishi 1962-yilda boshlangan bo'lib, 1963-yil noyabr oyida Janubiy Surxon quruvchilari kanalning o'ng qirg'og'idagi suv chiqargich hududini beton bilan mustahkamlash ishlarini yakunladilar.

1963-yilda Surxon-Sherobod vohasining Qiziriq va Bandixon cho'l hududlarini suv bilan ta'minlash maqsadida umumxalq hashari uyushtirildi. Shu bilan birga, "Шерабадканалстрой" SMU jamoasi 1964-yil 1-yanvargacha 426 kub metr beton ishlari va 6,18 ming kub metr hajmdagi yer qazish ishlarini amalga oshirdi. Keyingi bosqichda, 1965-yil mart oyida Sherobod mashina magistral kanali orqali 9 ming gektar yangi yerlarni sug'orish imkonini yaratishga qaratilgan qurilish bazasini shakllantirish maqsadida "Шерабадканалстрой" SMU tashkil etildi. [4] 1965-yil fevral oyida "Шерабадканалстрой" jamoasi tomonidan katta dyuker inshooti qurib bitkazildi, shuningdek, kanalning 13 kilometrlik mashina qismi beton bilan mustahkamlandi. Bundan tashqari, suv quvurlari orqali Vaxsh elektr energiyasini qabul qilishga mo'ljallangan, 126 ming kilovatt quvvatga ega podstansiya qurildi. 1966-yilda Sherobod magistral kanalining o'ng tarmog'i, 1968-yilda esa chap tarmog'i ishga tushirildi. Natijada 3-, 1-, 6- va 7-sovxozlar suv bilan ta'minlandi. 1968-yilda 6-sovxoz hududida 2 300 gektar yangi yer o'zlashtirildi. [5]

1968-yilda Sherobod tumanida suvning isrof qilinishi sababli Sherobod va Zang kanallarida belgilangan 34 kubometr o'rniga 54 kubometr suv sarflandi, natijada yerlarning sho'rlanishi oshdi. Suvdan foydalanish koeffitsiyenti 64 foizni tashkil etdi. Lenin nomli kolxoz esa Sherobod daryosidan 3,5 kubometr o'rniga 7 kubometr suv oldi. [6]

3. Bosqich: 1980-yillarda – melioratsiya ishlarining takomillashuvi va ekin maydonlarining kengayishi. Mazkur davrda sug'orish va melioratsiya tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan ishlar izchil davom ettirildi. Mavjud irrigatsiya tarmoqlari modernizatsiya qilinib, ularning samaradorligini oshirish choralariga alohida e'tibor berildi. Shu bilan birga, yerlarning sho'rlanishi va botqoqlanishi kabi muammolar ham yuzaga kelib, ularni bartaraf etishga qaratilgan yangi meliorativ tadbirlar ishlab chiqildi. Bu jarayonda melioratsiya ishlarining tabiiy muhitga ta'iri ham o'rganila boshlandi. Suv resurslarining cheklanishi va ekologik muammolarning kuchayishi cho'l hududlarini o'zlashtirish sur'atlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Shu sababli tuproq unumdorligini saqlash, yer sifatini yaxshilash hamda mineral va organik o'g'itlardan samarali foydalanish masalalari dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Bandixon va Qiziriq cho'llarini o'zlashtirish ishlari Surxon-Sherobod vohasida yangi bosqichga ko'tarildi. Ushbu hududlarda paxtachilik, chorvachilik va sabzavotchilikka ixtisoslashgan yangi sovxozlar tashkil etilib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hududiy bazasi kengaytirildi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1970-yil yakuniga qadar Sherobod cho'lini o'zlashtirish tadbirlarida jami 23 ming nafar kishi ishtirok etgan.

1971-yil oxirida Qashqadaryo viloyatidan kelgan dehqonlar ham mazkur ishlarga jalb qilindi. Jumladan, Dehqonobod qishlog'idan bir necha oila K. Rahimov nomidagi sovxoz hududiga ko'chirib keltirildi. O'sha yilning o'zida xo'jalik tasarrufida 2745 gektar yangi yer qishloq xo'jaligi aylanmasiga kiritildi.

Cho'l hududlarida ixtisoslashgan xo'jaliklar soni ham ortib bordi. Xususan, 1972-yil 24-fevralda chorvachilik uchun yem-xashak ekinlari yetishtirishga mo'ljallangan "Progress" sovxozi tashkil etildi. Shu yili yangi o'zlashtirilgan yerlar negizida 8-sonli "Do'stlik" sovxozi faoliyat boshladi va unga tajribali mexanizator hamda paxtakor Sh. Qudratov rahbar etib tayinlandi. Sovxoz tarkibida uchta yangi paxtachilik bo'limi tashkil qilinib, ishlab chiqarish quvvatlari kengaytirildi.

1974-yildan boshlab Surxon-Sherobod vodiysida yirik gidrotexnik loyihalarni amalga oshirish ishlari jadallashdi. Yangi yerlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda irrigatsiya infratuzilmasini rivojlantirishga katta mablag' va mehnat resurslari yo'naltirildi. Sherobod Mashina kanalining o'ng qanotini qurish ishlari olib borilib, loyiha 1975-yil oxiriga kelib yakunlandi. Natijada V. Qodirov nomidagi yangi sovxoz tashkil etildi hamda 900 gektardan ortiq yer qishloq xo'jaligi foydalanishiga topshirildi. Umuman olganda, 1971–1975-yillar davomida Sherobod hududida N. Murodov, U. Yusupov va V. Qodirov nomlari bilan atalgan paxtachilikka ixtisoslashgan sovxozlar barpo etilib, vohaning agrar salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Natijalar va muhokama. Sherobod iqtisodiy jihatdan rivojlansa-da, mahsulotlarni qayta ishlovchi korxonalar

yetishmagani sababli daromad faqat xarajatlarni qoplashga yetar edi. Natijada dehqonlarning ehtiyojlari to'liq ta'minlanmadi. Uy-joy, madaniy-oqartuv binolari qurilishi va mehnatkashlarning dam olish sharoitlarini yaxshilash ishlari esa sust olib borildi. Shunga qaramay, 1970-yillarda qishloq xo'jaligi va chorvachilik sohasidagi yutuqlar mustahkamlandi. "Partiya XXII", Kirov nomli va Lenin nomli kolxozlar ibratli natijalarga erishdi. Sherobodlik ilg'or paxtakor va mexanizatorlar Sh.Qudratov, O'.Axmedov, A.Jumayev, X.Parpiyeva, R.Tavasharov, I.Ismoilova, Ch.Xudayorova kabi fidokorlar yetishib chiqib, ularning mehnati butun O'zbekistonga namuna bo'ldi. Paxta yetishtirish hajmini oshirish uchun 1970-yilga kelib, oblastda 115 ming gektar yangi yerlar o'zlashtirildi. Bu o'zlashtirishing 60,87 foizi Surxon-Sherobod cho'lida, 17,39 foizi Surxondaryoning chap qirg'og'ida, 13,04 foizi Oqmachit va Xotinrabot massivlarida, 8,7 foizi boshqa xo'jaliklarda amalga oshirildi.

1977-yil boshida Tallashqon massivida 17 va 18-son paxtachilik sovxozlari tashkil etildi. 1977-yil 19-martda yangi sovxozlarning ochilishiga bag'ishlangan ommaviy miting o'tkazildi. 18-sovxoz "Oktyabr 60 yilligi" nomi bilan, 17-sovxoz esa "KPSS XXV syezdi" nomi bilan ataldi. "KPSS XXV syezdi" sovxozi tashkil topganida uchta bo'lim va 19 ta paxtachilik brigadasi faoliyat yuritib, 1526 gektar yerga paxta ekildi. "Oktyabr 60 yilligi" sovxozi esa 1500 gektar maydonda paxta yetishtirdi. «Oktyabr 60 yilligi» sovxozi 2000 tonna, «KPSS XXV syezdi» sovxozi 1980 tonna paxta topshirdi va o'rtacha hosildorlik: 13.15 sentnerni tashkil etdi. Sherobod cho'lini o'zlashtirish jarayonida 40 dan ortiq millat va elat vakillari ishtirok etdi. Natijada, hududda aholining milliy tarkibi yanada xilma-xil tus oldi. Rayonning 67 aholi punktida istiqomat qiluvchi aholining 13,6 foizini tojiklar, 1,1 foizini ruslar, 1,8 foizini esa boshqa millat vakillari tashkil etardi.

Sherobod massivini o'zlashtirish jarayoniga viloyat va respublikaning turli tumanlaridan qo'shimcha mehnat resurslari jalb etildi. O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1963-yil 23-yanvardagi "Sherobod massivida yangi yerlarni o'zlashtirish haqida"gi qaroriga binoan, yangi yerlarni o'zlashtirish, irrigatsiya tarmoqlarini barpo etish uchun qurilish korxonalariga "Сурханводстрой" SMU uchun Sherobod tumanidan 1000 kishi, №11-qurilish tresti uchun Denov tumanidan 1200 kishi, G'uzor tumanidan 1000 kishi, Sho'rchi tumanidan 3000 kishi, №165-qurilish tresti uchun Sho'rchi tumanidan 500 kishi jalb etildi.

XULOSA. Sovet hokimiyati hukmronligi yillarida yangi yerlarni o'zlashtirish va ularni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga jalb etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblandi. Ayniqsa, o'zlashtirilgan hududlarni paxtachilikka ixtisoslashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu holat markaziy sanoat korxonalarining paxta xomashyosiga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash zarurati bilan izohlanadi. Natijada O'zbekistonda paxta yakkahokimligi tobora kuchayib bordi. Shu jarayon doirasida Surxon-Sherobod vohasida ham paxta yetishtirish uchun qulay bo'lgan hududlar o'zlashtirilib, yirik paxtachilik xo'jaliklari tashkil etildi.

Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida Surxon-Sherobod vohasida ikkita yirik paxtachilik rayoni hamda paxta yetishtirishga ixtisoslashgan 16 ta xo'jalik faoliyat ko'rsata boshladi. Mazkur xo'jaliklarni mehnat resurslari bilan ta'minlash maqsadida Boysun, Sherobod, Denov va Sariosiyo rayonlarining tog'li qishloqlaridan 300 dan ortiq xo'jalik yangi o'zlashtirilgan hududlarga ko'chirildi. Shu bilan birga, cho'l yerlarini o'zlashtirish ishlari viloyatdagi ichki migratsiya jarayonlarining jadallashuviga olib keldi. Markaziy hokimiyat ko'rsatmasiga muvofiq ayrim boshqa hududlar aholisi ham Surxon-Sherobod cho'llariga yuborildi.

Umuman olganda, Sherobod, Qiziriq va Beshqo'ton cho'llarining o'zlashtirilishi munosabati bilan Boysun, Sherobod hamda boshqa tog'li tumanlardan aholining ko'chirilishi viloyatda mehnat resurslarini hududlar bo'yicha qayta taqsimlashga xizmat qildi. Biroq migratsiya siyosatini amalga oshirish jarayonida aholi manfaatlari va ijtimoiy ehtiyojlari yetarli darajada hisobga olinmagani sababli ayrim ijtimoiy-iqtisodiy muammolar ham yuzaga keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 474 fond, 1ro'yxat, 121ish, 94-varaq.

2."Қизил Ўзбекистон" газетаси. 1955 йил. 6 сон.

3.O'zMA Р-2347-фонд, Главное переселенческое управление Совета Министров Уз.ССР.

4. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 474-fond, Отдел переселения и органа набора рабочих по Сурхандарьинскому облисполкому отдел по использованию трудовых ресурсов.

5.Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 312-fond, Viloyat qurilish va arxitektura boshqarmasi. "Қизил Ўзбекистон" газетаси, 1955-1963 йй.

6.Народное хозяйство Узбекской ССР. 1975.

7. Ўзбекистон колхоз ва совхозлари тарихи. Очерклар. VIII китоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1979. – 452 б.